


# ODONOMA



1

Oysha Usmonovna Xasanboyeva, Muhayyo Egamberdiyevna Inoyatova

# **1-SINFDA ODOBNOMA DARSLARI**

*(O'qituvchi kitobi)*

Toshkent — 2011

Ushbu metodik qo'llanma boshlang'ich 1-sinf «Odobnoma» fanidan dars berish uchun o'qituvchilarga yordam ko'rsatishga mo'ljallangan. Unda «Odobnoma» fanining o'qitish tamoyillari, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuzasidan metodik yo'l-yo'riqlar, har bir dars bo'yicha dars ishlanmalari taqdim etilgan.

Taqrizchilar:

A. Sulaymonov – pedagogika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim;  
D. Karimjonova – Mirobod tumani 154-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi qoshidagi «Ma'naviyat» ilmiy metodik kengashida 000-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

## KIRISH

1-sinf “Odobnoma” faniga metodologik asos bo‘lgan g‘oyalar Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari va jamiyatda bola tarbiyasi yuzasidan bildirgan fikrlari, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” dasturi, Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch”, “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadimizdir”, “Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” kabi ma’ruzalari hamda milliy, umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq tarbiyasi borasidagi boshqa manbalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ularda zamonaviy jamiyat talablari asosida barkamol shaxsni shakllantirishning muhim yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. O‘quvchi dunyoqarashi ma’naviy sifatlarining mazmunida axloq-odobga oid tasavvur va tushunchalar muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da bolalarni kichikligidan boshlab jamiyatimizning munosib a‘zosi qilib tarbiyalashga e’tibor qaratilgan.

“Odobnoma” fani milliy istiqlol g‘oyalarini aks ettiruvchi fan sifatida maktab amaliyotiga yaqindagina (2002-2003 o‘quv yilidan boshlab) kiritildi. Lekin uning ildizi nihoyatda chuqur, ota-bobolarimiz O‘zbekiston zaminida xalq bo‘lib shakllana boshlagan davrlardan boshlab farzandlarga odob-axloq asoslarini singdirishga doir o‘ziga xos qomusiy meros va tajribaga egalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishning ustuvor vazifalaridan eng asosiylari: bolalikdan ularda ma’naviy meros, urf-odat va an‘analarga hurmat va sadoqat, baxtga intilish, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarkib toptirish, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishdan iborat.

## **“Odobnoma” o‘quv predmeti mazmuni va uni o‘qitish tamoyillari**

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida boshlang‘ich ta‘limning ahamiyati juda katta. U bolaning jamoa ichida tarbiyalashning o‘ziga xos muhim dorilfununi hisoblanadi. Shunga ko‘ra odob-axloq ilmidan saboq beruvchi “Odobnoma” o‘quv predmeti o‘quvchini milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini bilishga, xalq an‘ana va asotirlarini qadrlashga, oila va jamoat joylarida o‘zini tutish me‘yorlariga amal qilishga, katta-kichikni birdek ardoqlashga, yosh avlodni kichikligidan boshlab o‘zlikni anglashiga yo‘naltiriladi. Buyuk allomalarimizdan Husayn Voiz Koshifiy odob-axloq qoidalarining inson hayotida muhim o‘rin tutishini uqtirib: “Odob - bu qalbni yomon so‘zlardan va nojo‘ya xulqdan saqlab qolish, o‘zini va o‘zgalarni hurmat qila bilish, shu bilan birga, o‘zining va o‘zgalarning ham obro‘sini tushirmaslikdir” degan edi. Shu sababli 1-sinfda “Odobnoma” fanidan dars berish o‘qituvchidan chuqur bilim, mahorat va ijodkorlikni talab etadi. U kichik yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallangani uchun o‘quvchining obrazli fikrlashining hisobga olinganligi, o‘quvchining nazariy bilimlardan ko‘ra amaliy bilimlarni oson o‘zlashtirishini e‘tiborda tutilishi, bunda darsning qiziqarli tashkil etilishining muhimligiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega o‘quv fani hisoblanadi. U o‘zida “Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining g‘oya va yo‘nalishlarini ifodalaydi. 1-sinf “Odobnoma” fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimizning bo‘lg‘usi quruvchilarini odobli va yuksak axloqli, sog‘lom milliy mafkura sohiblari qilib tarbiyalashdan iborat. Farzandlarimizni imon-e‘tiqodli, ibo-hayoli, vijdonli, adolatli, Vatan tuyg‘usiga ega bo‘lgan barkamol inson qilib tarbiyalash “Odobnoma” fanining ustuvor maqsadidir.

“Odobnoma” o‘quv predmetini o‘qitishning mazmuni yosh avlodda barkamollik negizlarini qaror toptirishga qaratiladi. Mazkur barkamollik negizlari o‘quvchilarda mukammal fuqarolik tuyg‘ularini shakllantirish, odob-axloqning umrboqiy tamoyillari - salomlashish odobi, yaxshi va yomon axloqiy sifatlarni qiyoslash orqali, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida go‘zal axloqiy fazilatlarini qaror toptirish, ekologik dunyoqarash va tafakkur tarzi negizlarini vujudga keltirish kabilardan iborat.

“Odobnoma” fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yishi zarur:

- “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” turkumiga kiruvchi o‘quv predmetlari doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi qalbida Vatan tuyg‘usi, davlat ramzlariga hurmat va sadoqat, kelajagi buyuk O‘zbekiston mamlaktaining munosib vorislari bo‘lishga intilish tuyg‘ularini tarkib toptirish;

- yosh avlodda barkamollik sifatleri: shirinso‘zlik, haqiqatgo‘ylik, qat’iyat, mehr-muruvvatlilik, ilm va hunarning ahamiyatini anglash, bilimli, uddaburron, tadbirkor, mehnatkash, biror hunarning ustasi bo‘lishga intilish ehtiyojlarini vujudga keltirish;

- xalqimizning azaliy an‘analari, urf-odat, rasm-rusum, milliy-ma’naviy, umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlariga sadoqt tuyg‘ularini shakllantirish kabilar.

1-sinfda “Odobnoma” darsligidan foydalanib, o‘quvchilarga odob-axloq negizlarini singdirish yagona ma’naviy-axloqiy maqsad va ijtimoiy yo‘naltirish tendensiyasining mavjudligi; tarixiylik; vorisiylik; odob-axloq negizlarini singdirishning optimal (maqbul) shakl, metod, usul va vositalaridan integrativ foydalanish; fanlar integratsiyasi tamoyili; nazariya va amaliyot birligi, ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatish; xalqchillik, ilmiylik, onglilik va tushunarlilik; ta’limni integratsiyalash va tabaqalashtirish kabi muayyan xususiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Darslikning ilk bo‘limlarida “O‘zbekiston - ozod, obod diyor”, “Bobolardan meros yurt”, “Vatan mehri” kabi mavzular yoritildi. Mazkur darslikning avvalgi darsliklardan asosiy farqi unda o‘quvchilarga Vatan g‘oyasini singdirishga alohida e‘tibor qaratilganidir. Shuningdek, unda o‘quvchini to‘g‘ri o‘qish, yozishga o‘rgatishga mo‘ljallangan harflarni katakchalarda ifodalashga oid o‘quv materiallaridan ijodiy-integrativ foydalanib, o‘quvchi tafakkurini faollashtiruvchi jumboq-krossvordlar havola etilgan. Ularning aksariyati o‘zbek xalq maqollaridan iborat bo‘lib, o‘quvchilarni yuksak odob-axloq me‘yorlariga o‘rgatishga qaratilishi bilan birga, ularda savodxonlik, chiroyli nutq, so‘zamollikni shakllantirishni ko‘zlaydi. Darslikka kiritilgan “Buni bilib oling!”, “Birgalikda o‘qiyimiz” ruknidagi o‘quv materiallari, mavzuga o‘quvchining mustaqil munosabatini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar, savol va topshiriqlar o‘quvchida o‘qishga havas, mustaqil fikr, “Odobnoma” o‘quv predmetining asosiy tushunchalari haqida aniq va to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan tamoyillarni e‘tiborga olgan holda, taqdim etilayotgan 1-sinf uchun “Odobnoma” darsligida quyidagilarga alohida e‘tibor berildi:

1) 1-sinf o‘quvchisida ko‘rgazmali tafakkur yuritishga moyillikning yuqori darajada bo‘lishini hisobga olgan holda, darslikda ko‘rgazmalilik

tamoyiliga amal qilish; bunda darslikka tanlangan rasmlarning hayotiyliigi, yorqinligi, rang-barangligi, o'quv matni bilan aloqadorligi, qo'shimcha ma'lumotlar bera olishi, didaktik imkoniyatining kengligi va serqirraligini nazarda tutish.

2) matnlarning sodda, o'quvchining o'zi yoki u bilan muloqotga kirishayotgan kishilar (o'qituvchi, ota-ona, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil, o'rtoqlari) hayotida keng qo'llanadigan so'zlardan tuzilishi, shuningdek, lug'at zahirasini kengaytirish maqsadida yangi so'zlardan ham foydalanishga ahamiyat berilganligi;

3) ramziy belgilar orqali o'quvchini o'quv topshirig'ini tez ilg'ab olishiga erishish;

4) ramziy belgilarda o'quvchining idealiga aylangan kishilar bilan birga, tengdosh qahramon qiyofasidan foydalanish asosida darslikning qiziqarli bo'lishini ta'minlash;

5) darslikda o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'llovchi pedagogik texnologiyalar, jumboq-rebuslar, muammoli savollardan foydalanish orqali o'quvchida hozirjavoblik, uddaburonlik, qiyinchiliklarga chidamlilik, o'quv topshirig'i ustida sabr-toqat bilan ishlay bilish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Pedagogik texnologiya o'quv-biluv faoliyatini oqilona tashkil etish va jihozlash; oz vaqt ichida ta'lim natijalarini kafolatlay olish, pedagogik muammolarni metodologik darajada hal etish, o'quv jarayonini samarali boshqarish imkonini beruvchi pedagogik tizimdir. Pedagogik atamalar lug'atida ta'lim texnologiyalariga "1) ta'limning yanada samaraliroq shakliga erishish uchun inson zahiralari va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim jarayonini baholash, amalga oshirish, tizimli rejalashtirish metodi. 2) ta'limning texnik vositalari va kompyuterlarni shunchaki qo'llash emas, balki ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni tahlil etish asosida ta'lim jarayonini qulaylashtirish usullarini ishlab chiqish va uning tamoyillarini aniqlash. 3) aniq maqsadga ko'ra o'quv jarayonini boshqarishga oid didaktik muammolarni hal qilish, bunda erishiladigan yutuqlar aniq tavsif va tariflarga asoslanishiga erishish metodi" - deb ta'rif berilgan. Ta'limning ilg'or texnologiyalari dars jarayonida DTS va o'quv dasturlarida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan birga, o'quvchida sodir bo'layotgan jarayonga faol munosabat, egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada boyitish, kengaytirish, bu jarayonda o'z o'rnini aniqlash, o'ziga bevosita aloqador va isloh etish bilan o'zgartirishi mumkin bo'lgan narsa-hodisalarni go'zallashtirish ishtiyoqini orttirishdan iborat. Quyida "Ilm va hunarning xosiyati" mavzusidagi o'yin-darsni o'tkazish texnologiyasini keltiramiz:

1 bosqich: darsning maqsadi va vazifalarini belgilab olish: darsning maqsadi o'quvchining mavzu yuzasidan egallagan bilimlari mustah-

kamligini aniqlash va ularning mavzu bo'yicha noto'g'ri shakllanib qolgan ayrim tasavvurlarini to'g'rilashdir. Unga muvofiq tarzda quyidagi vazifalar belgilanadi: 1) o'quvchilarning kasb, hunar, hunarli va hunarsiz o'rtasidagi farqli jihatlar, ilm va hunar egallashda insonga zarur bo'lgan fazilatlar haqidagi tushunchalarini aniqlash; 2) o'quvchilarda o'zaro hamkorlik, birgalikda o'quv topshirig'ini hal etish va bundan quvonish tajribalarini hosil qilish; 3) o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini boyitish; o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

O'yinni tashkil etish: o'yin-dars 1 soatga mo'ljallanadi. Sinf 6 guruhga (har birida 4-6 o'quvchi) bo'linadi.

Darsning jihozlanishi: har bir guruh ro'parasidagi stolga uchburchak, doira va to'g'ri burchak shaklida bir xil rangdagi (har bir guruh stoliga qo'yilgan shakllar rangi bilan bir-biridan farq qilishi lozim. Masalan, 1-guruh: sariq, 2-guruh- jigarrang, 3-guruh - qizil rang va b.) qog'oz figurachalar; flomasterlar; har bir o'quvchi uchun standart hajmli qog'oz va ruchka qo'yilishi lozim.

O'yinning tuzilishi: o'yin-dars jarayonida o'quvchilar tomonidan ijodiy xarakterdagi 3 ta topshiriq yechiladi. Topshiriqlarning har biri uchun alohida figura tanlanadi. Masalan, 1-topshiriq javobini 3-guruh qizil rangdagi doiralar, 2-topshiriq uchun qizil rangli uchburchaklar, 3-topshiriq uchun qizil rangli to'g'ri burchaklarda yechadi. Xuddi shuningdek, 1-guruh sariq ranglilarida, 2-guruh jigarranglilarida yechadi va h.k.

Har bir topshiriqdan so'ng guruhlar quyidagi tartibda o'zaro qog'ozlarni almashadilar.

1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq
1	2	3
2	3	4
3	4	5
4	5	6
5	6	1
6	1	2

Baholash: har bir topshiriq 40 balli shkala asosida baholanadi. O'yin uchun belgilanadigan eng yuqori ball - 120 ball. 1) o'yinga kirishish vaqti - 3 daq.; 2) birinchi topshiriq uchun - 11 daq.; 3) 2-topshiriq uchun - 13 daq.; 3-topshiriq uchun - 13 daq.; natijalarni e'lon qilish uchun - 5 daq.; hammasi bo'lib: - 45 daq.

2-bosqich: o'yinga kirishish — o'qituvchi o'quvchilarni o'yin-darsning maqsadi va o'yin shartlari bilan tanishtiradi.



1-topshiriq: savollar; o‘qituvchi stolida 6 ta kartochka qo‘yilib, ularda “kasb”, “hunar”, “hunarmand”, “mahorat”, “sabr-toqat”, “mehnatsevarlik” so‘zlari yozilgan. Barcha kartochkalar teskari tomoniga o‘girib qo‘yilgan (doskaga ham aynan shu so‘zlar yozilgan). Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib, o‘qituvchi stolidagi kartochkalardan birini o‘z guruhi uchun oladi. Shu tarzda har bir guruh yechishi zarur bo‘lgan 1-topshiriqning mavzusi aniqlanadi. Aniqlangan so‘zni har bir guruh o‘z uchburchak qog‘oz figurasi yuzasiga katta-katta qilib yozadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga diqqat bilan o‘ylab qog‘ozning bir tomoniga o‘zlariga tegishli tushuncha haqida 4 ta savol yozishni topshiradi (avval har bir o‘quvchi o‘zi savol ustida o‘ylab oladi, so‘ngra guruhga o‘z savolini bildiradi. Keyin guruh a‘zolari birgalikda mulohaza yuritib, savollardan ma‘qul ko‘rgan to‘rttasini tegishli umumiy qog‘ozga yozadilar). 6 daqiqadan so‘ng o‘quvchilar ajratgan savollarini o‘qib beradilar va o‘qituvchi yordamida tegishli o‘zgartirishlar kiritadilar.

Savollarni baholash mezonlari: 1) savolning mavzuga aloqadorligi; 2) to‘g‘ri shakllantirilganligi; 3) originalligi; har bir savol 10 balli shkalada baholanadi. Maksimal ball - 40 ball.

2-topshiriq: savollarga javob qaytarish - guruhlar yuqorida keltirilgan sxema tartibida savollarni tarqatadilar. Tushunchaning nomi va savollarning javobi doira shaklidagi figurachalarga yoziladi. O‘quvchilarga savollarga javob berishda hayotda ko‘rgan, kitobda o‘qigan, eshitgan misollarini namuna sifatida keltirishlari mumkinligi aytiladi. Shuningdek, o‘z javoblarida maqollar, hikmatlar, donolarning fikrlaridan foydalanishlari mumkinligi aytiladi. Topshiriq bajarilganidan so‘ng, barcha guruhlar yozgan javoblar eshitaladi.

Javoblarni baholash mezonlari: 1) javobning aniqligi, mantiqiyligi, tushunariligi; 2) to‘g‘ri shakllantirilganligi; 3) keltirilgan hayotiy yoki kitobiy misollarning belgilangan mavzuga mosligi. Har bir javob 10 balli shkalada baholanadi. Maksimal ball - 40 ball.

3-topshiriq: tekshirish, tahlil qilish va baholash. Bolalar savol va javoblarni yuqorida keltirilgan sxema tartibida almashtiradilar. Endi har bir o‘quvchi ekspert sifatida sherigining savol va javoblarini baholaydi. Baholar quyidagi jadvalga tegishli tartibda belgilanadi:

Topshiriqning bajarilishi	“+”	“-”	“0”
Savollar			
Javoblar			

“+” bilan belgilangan qatorga qo‘yilgan savol yoki berilgan javobning ijobiy jihatlari, “-” bilan belgilangan qatorga ularning salbiy jihatlari yoziladi, “0” bilan belgilangan qatorga baho qo‘yiladi (5 balli shkala bo‘yicha).

Tahlillarni baholash mezonlari:

1. Jadvalning to‘g‘ri to‘ldirilganligi.
2. Ularning savol yoki javob mazmuniga mosligi.
3. To‘g‘ri qo‘yilganligi.

3-bosqich: Tahlil, munozara va natijalarni baholash - o‘qituvchi o‘yin-darsning qanday o‘tganligini baholab, o‘quvchilarning faoliyati, javoblariga o‘z munosabatini bildiradi, darsni baholaydi, har bir tushuncha yuzasidan qo‘shimcha izohlar beradi. Ballar sanalib, qiyoslanib, o‘yin g‘olibi e‘lon qilinadi.

O‘qituvchilar tomonidan taqdim etilgan tushunchalar bo‘yicha savol-javob qayd etilgan katta varaqlar ustiga tushunchaning nomi yozilgan holda, sinf doskasiga yopishtirib qo‘yiladi. Bu tanaffus vaqtida o‘quvchilarga o‘zini qiziqtirgan tushuncha bo‘yicha fikrlarni o‘qib ko‘rish, ular haqida qo‘shimcha mulohaza yuritish imkonini yaratadi.

Birinchi sinf “Odobnoma” darslarida “Klaster” (tarmoqlar) metodidan foydalanish o‘quvchilarni qiyosiy-tahliliy fikrlash, tafakkurini o‘stirish, yagona mavzu atrofidagi atama, tushuncha va narsa-hodisalarning o‘zaro uyg‘unligini anglab olishga yo‘llovchi metoddir. Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi qo‘yilgan muammo (mavzu) asosida erkin, ijodiy fikrlashga sharoit yaratadi.

O‘quvchilarni o‘zbek xalq maqollari, mutafakkirlar yaratgan hikmatli so‘zlar vositasida mehnatsevarlik, do‘stlik, mardlik, ozodalik ruhida tarbiyalashga qaratilgan darslarni quyidagi interfaol usulda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir:

Maqsad: Maqollar mazmunini rasmlar asosida tushuntirish orqali bolalarni rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur bo‘lishga o‘rgatish. Bolalarning taassurotlarini tegishli hikmatli so‘zlar yordamida mustahkamlash.

Jihozlar: mehnatsevarlik, do‘stlik, mardlik, ozodalik ifodalangan rasmlar.

Darsning borishi: o‘quvchilar 4 guruhga rasmlar vositasida bo‘linadilar. Guruhlar nomi: mehnatsevarlik; do‘stlik; mardlik; ozodalik.

O‘qituvchi:

Bolalar, mana guruhlarga ham bo‘lindik. Endi sizlarni 1-topshiriq bilan tanishtiraman: Eshiting, qaysi guruh o‘z guruhi nomiga tegishli maqol va hikmatli so‘zlarni ko‘p aytadi.

Guruhlar o‘z nomlariga mos maqol va hikmatli so‘zlardan aytadilar.

Bajaradigan ish va uning taqdimoti uchun ajratiladigan vaqt - 10 daqiqa.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/1159> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1159> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1159>